

**«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» AJ
yagona aksiyadorining
2016 yil “30” sentyabrdagi
10 – sonli Qarori bilan
“TASDIQLANGAN”**

**«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» Aksiyadorlik jamiyatining
AXBOROT SIYOSATI TO'G'RISIDAGI NIZOMI**

Toshkent 2016 yil.

I.UMUMIY QISM

1. Ushbu Axborot siyosati haqidagi Nizom «O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» aksiyadorlik jamiyatining (bundan keyin matnda - jamiyat) Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni taqdim etish va nashr etish qoidalari (31.07.2012y., qayd. № 2383) va Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrdagi №9-sonli bayonnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom oshkor qilinishi shart bo'lgan axborotlar va hujjatlar, hamda qo'shimcha axborotlar ro'yxatini aniqlaydi. Jamiyat tomonidan ularni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

3. Axborot siyosatining maqsadi – aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va boshqa manfaatdor shaxslarning (bundan keyin matnda – manfaatdor shaxslar) jamiyat va uning faoliyati haqidagi ishonchli ma'lumotiga nisbatan bo'lgan axborot ehtiyojlarini qondirishdir.

4. Axborot siyosati manfaatdor shaxslarning ularni investitsion va boshqaruq qarorlarini qabul qilishida muhim bo'lgan axborotni olishiga nisbatan bo'lgan huqularini imkon darajasida to'liq amalga oshirishga, hamda jamiyat haqidagi maxfiy axborotni himoyalashga qaratilgan.

5. Axborotni tijorat siri qatoriga kiritish, uni aniqlash va olish shartlari O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni va qonunchilikning boshqa hujjatlari bilan jamiyat tomonidan belgilanadi.

II.AXBOROT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI

6. Axborot siyosatining asosiy tamoyillari: muntazamlik, operativlik, hammaboplilik, to'liqlik, teng huquqlilik, balanslilik, axborot resurslarining himoyalanganligidir.

7. Muntazamlik tamoyili Jamiyat tomonidan manfaatdor shaxslarga muntazam tarzda jamiyat haqida axborot taqdim etishga qaratilgan.

8. Operativlik tamoyili shuni anglatadiki Jamiyat qisqa muddatlarda manfaatdor shaxslarni Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi, hamda ularning manfaatiga aloqador eng jiddiy hodisa va holatlardan xabardor etadi.

9. Axborotning hammabopligi tamoyili shuni anglatadiki Jamiyat o'zining faoliyati haqida ma'lumot berish uchun oshkor qilinayotgan axborotga manfaatdor shaxslarning erkin, bemalol va tanlamaydigan kanallar va vositalar orqali yetishishlariga imkon yaratadi.

10. To'liqlik tamoyili shuni anglatadiki Jamiyat barcha manfaatdor shaxslarga haqqoniylar axborotni taqdim qiladi, bu yerda o'zi haqida salbiy ma'lumotni oshkor qilishdan qochmasdan, Jamiyat faoliyatining natijalari hamda Jamiyat haqida to'liq tasavvurot olishga imkon beradigan hajmda axborot taqdim qiladi.

11. Teng huquqlilik tamoyili shuni anglatadiki Jamiyat faoliyati haqida axborot olish uchun Jamiyat barcha manfaatdor shaxslarga teng huquqlarni ta'minlaydi.

12. Balanslilik tamoyili Jamiyatning ochiqligi va shaffofligi hamda uning tijorat manfaatlarini himoya qilish o'rtasidagi balansni saqlashga qaratilgan. Bu yerda quyidagilar bajarilishi kerak bo'lgan shartlarga kiradi: maxfiy axborotning himoyalanishi;

13. Jamiyatning ichki hujjatlari bilan belgilangan insayd axborotni tarqatish va foydalanish qoidalariga rioya qilish.

14. Himoyalanganlik tamoyili maxfiy axborot deb topilgan ma'lumotlarni, shuningdek Jamiyatning tarqatilgan va boshqa axborotlarining himoyalash usullari va vositalarini nazarda tutadi.

III. OSHKOR QILINISHI SHART BO'LGAN AXBOROTLAR RO'YXATI, ULARNING OSHKOR QILINISHI MUDDATLARI VA TARTIBI

15. Jamiyat oshkor qilinishi shart bo'lgan axborotni O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, 2014 yil 12 iyuldagagi Vazirlar Mahkamasining 176сонли "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruв tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2013 yil 31 dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining 355сонли "O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni taqdim etish va nashr etish qoidalari (31.07.2012y., qayd. №2383) va qonunchilikning boshqa hujjatlariga mos ravishdagi hajm, muddat va usullari bilan oshkor qiladi.

16. Axborotni oshkor qilish amalga oshiriladi:

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishga vakolatli organning rasmiy veb-sahifasida (agar jamiyatning qimmatli qog'ozlari birja kotirovka varag'iga kiritilmagan bo'lsa);

fond birjasining rasmiy veb-sahifasida (www.uzse.uz) (agar jamiyatning qimmatli qog'ozlari birja kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa);

jamiyatning rasmiy veb-sahifasida(www.railway.uz);

ommaviy axborot vositalarida.

17. Qimmatli qog'ozlar bozori hamda fond birjasini tartibga solishga vakolatli organning rasmiy veb-sahifasida oshkor qilinishi shart bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan hujjatlar quyidagilardir:

qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi (qimmatli qog'ozlarni ochiq joylashtirilgan holda);

jamiyatning yillik hisoboti, shu jumladan Xalqaro moliyaviy hisobot yuritish standartlariga mos holda tuzilgan hisobotlar;

jamiyat faoliyatining birinchi chorak, birinchi yarim yillik va to'qqiz oy uchun natijalari hisoboti;

jamiyat faoliyatidagi jiddiy holat haqida.

18. Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan axborotlarni Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni taqdim etish va nashr etish qoidalari (31.07.2012y, qayd. №2383) bilan belgilangan muddatlar, tartib va shaklda oshkor qiladi.

19. Jamiyatning qimmatli qog'ozlari fond birjasining birja kotirovka varag'iga kiritilganligi va (yoki) bo'lganligi holatida jamiyat barcha kerakli axborotlarni Birja byulleteni haqidagi Nizom talablariga asosan oshkor qiladi.

20. Jamiyat rasmiy veb-sahifaga (www.railway.uz) ega bo'lib, unda 2014 yil 12 iyuldaggi Vazirlar Mahkamasining 176-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan ro'yxati tasdiqlangan axborotlarning oshkor qilinishini ta'minlaydi.

21. Ommaviy axborot vositalarida oshkor qilinishi shart bo'lgan axborotlarga quyidagilar kiradi:

jamiat yagona aksiyadorining yig'ilishi o'tkazilishi haqida axborot;

jamiat joylashuvi (pochta manzili) yoki elektron manzili o'zgarishi to'g'risidagi xabarnoma;

imtiyozli huquqga ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlariga aksiyalar yoki aksiyalarga konversiyalanuvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar xarid qilishni taklif qilish;

aksiyalarni qaytarib sotib olish haqida axborot;

jamiatni tugatish, hamda uning kreditorlari tomonidan ariza berilishi tartibi va muddatlari haqidagi axborot.

IV. QO'SHIMCHA AXBOROTNING RO'YXATI VA OSHKOR QILINISHI TARTIBI

22. Jamiyat veb-sahifasining ingliz, rus va boshqa tillardagi versiyalarini tuzish orqali jamiyat rasmiy veb-sahifasini yana-da takomillashtirilishini ta'minlangan holda, ularda manfaatdor shaxslar foydalanishi uchun davlat tilidagi barcha axborotni mos tilga tarjimasi bilan joylashtiradi.

23. Jamiyat o'z veb-sahifasida quyidagi qo'shimcha ma'lumotni oshkor qiladi:

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga amal qilish majburiyatini olish va uni rioya qilinishi haqidagi axborot;

ijro organi haqida axborot, jumladan ushbu jamiyatda ishlashi davriga oid bo'lgan ma'lumotlar;

jamiatning ijro organi va boshqaruv organi tizimi faoliyati samaradorligini baholash natijalari;

jamiat aksiyalarining 20 foizidan ortig'iga ega bo'lgan aksiyadorlar haqida axborot;

tavsiya etilgan sof foydani taqsimlash usulining asoslanishi, dividendlar hajmi, ularning jamiyatda qabul qilingan dividend siyosatiga mosligini baholash,

hamda zarurat tug‘ilgan holda, sof foydaning muayyan qismini jamiyatni rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirilishi borasida tushuntirish va iqtisodiy asoslash;

xayriya (homiylik) yoki qaytarib olinmaydigan yordamni ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlari haqida qaror qabul qilish, shuningdek amalda ko‘rsatilgan (olingan) xayriya (homiylik) yoki qaytarib olinmaydigan yordam to‘g‘risidagi axborot.

24. Ijro organining mukofotlari va badallari hajmi borasidagi axborot yagona aksiyadorining yig‘ilishida oshkor etiladi va yagona aksiyadorining yig‘ilishi bayonnomasiga kiritiladi.

25. Jamiyat haqidagi axborotni qonunchilik tomonidan oshkor qilish uchun nazarda tutilgan boshqa manbalarda ham oshkor qilinishini ta’minlaydi.

V. BOSHQARUV ORGANLARI A’ZOLARI, MANSABDOR SHAXSLAR, JAMIYAT XODIMLARI VA MANFAATDOR SHAXSLAR O‘RTASIDAGI AXBOROT ALMASHINUVI TARTIBI

26. Boshqaruv organlari a’zolari, mansabdor shaxslar, AJ xodimlari va manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi axborot almashinushi uchun jamiyat mas’ul xodimni tayinlaydi va u orqali axborot almashinuvini amalga oshiradi.

27. Ushbu Nizomga muvofiq, manfaatdor shaxslarning axborot taqdim etish haqidagi yozma (elektron) murojaati asosida jamiyatning mas’ul xodimi bir hafta muddat davomida elektron shaklda barcha tegishli axborotlarni taqdim qiladi.

28. Hujjatlarning nusxasi taqdim etilishi zarurati tug‘ilganda, manfaatdor shaxs qimmati hujjatlardan nusxa olish va ularni pochta orqali jo‘natish xarajatlari miqdoridan oshmagan miqdoridagi to‘lovni amalga oshiradi.

29. Aksiyadorlar xizmat, tijorat hamda qonun bilan himoyalananadigan boshqa sirni tashkil etadigan axborotni oshkor qilishga haqli emasdirlar.

VI. JAMIYAT AXBOROT SIYOSATINING RIOYA ETILISHI USTIDAN NAZORATNI TA’MINLASH CHORALARI

30. Axborotni oshkor etishga ushbu Nizom bilan belgilangan jamiyatning korporativ kotibi (agar bo‘lsa) yoki Aksiyadorlar bilan korporativ aloqalar Boshqarmasining mas’ul xodimi, buxgalter, hamda zimmasiga jamiyat veb-sahifasini olib borish vazifasi yuklatilgan shaxs mas’uldir.

31. Nizomning ushbu talabini buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgardirlar.

32. Jamiyatning Kengash har chorakda ijro organining ushbu Nizom bajarilishi haqidagi hisobotini eshitadi.

VII. YAKUNIY QISMI

33. Ushbu Nizomga muvofiq axborotni oshkor qilinishining tashkillashtirilishi, holati va uning haqqoniyligiga javobgar jamiyatning ijro organidir.

34. Nizomning ushbu talabini buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgardirlar.

35. Ushbu Nizom Jamiyatning Kengash qarori bilan uning yig‘ilishida yoki sirtdan ovoz berishda qatnashgan ovozlarining ko‘pchiligi bilan tasdiqlanadi.

36. Ushbu Nizomga o‘zgartish yoki qo‘srimchalar Jamiatning Kengash qarori bilan uning yig‘ilishida yoki sirtdan ovoz berishda qatnashgan ovozlarining ko‘pchiligi bilan tasdiqlanadi.

37. Agar ushbu Nizomning alohida moddalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiat Nizomiga xilof bo‘lsa, bu moddalar o‘z kuchini yo‘qotadi va bu moddalarda berilgan holatlar bo‘yicha ushbu Nizomga tegishli o‘zgartishlar kiritilgunga qadar, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiat Nizomiga asosan amal qilinishi zarur.